



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN  
HAL QILUV QARORI**

**Chiroqchi tumani 2022-yil 30-may 4-1807-2201/874-sonli ish**

Chiroqchi tuman iqtisodiy sudining sudyasi A.Qodirov raisligida, sudya yordamchisi A.Chuliyevning kotibligida, (taraflar vakilining ishtirokisiz), arizachi [REDACTED] ning javobgar "[REDACTED]" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga nisbatan bergan arizasi bo'yicha ishni Chiroqchi tuman iqtisodiy sudi binosida ochiq sud majlisi muhokamasida ko'rib chiqib, quyidagilarni

**aniqladi:**

arizachi [REDACTED] sudga ariza bilan murojaat qilib, javobgar "[REDACTED]" mas'uliyati cheklangan jamiyatining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'n kundan ko'p muddatga to'xtatishni so'ragan.

Sud majlisi muhokamasi boshlangunga qadar arizachi vakili tomonidan ariza va ma'lumotnoma taqdim etilgan bo'lib, unga ko'ra javobgar tomonidan hisobot topshirilmaganligi va ish xajmi ko'payganligi sababli ishni arizachi vakilining ishtirokisiz ko'rib chiqish so'ralgan.

Javobgar ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida tegishli ravishda xabardor qilingan bo'lsa-da, sud majlisiga kelmadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 220-moddasiga asosan sud ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topdi.

Sud ishdagi hujjatlarni o'rganib chikib, quyidagi asoslarga ko'ra arizachining arizasini qanoatlantirish lozim degan to'xtamga keldi.

Ish hujjatlardan ko'rinishicha, "[REDACTED]" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan soliq hisoboti va (yoki) moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari bo'yicha tafovutlarning asoslari yohud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan tartibda va muddatda [REDACTED] ga taqdim qilinmagan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 111-moddasiga ko'ra, Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'n kundan ko'p muddatga to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining iltimosnomasiga asosan sud tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bunda soliq to'lovchining (soliq

agentining) bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to'xtatib turiladi.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risida qaror elektron shaklda soliq organi tomonidan bankka yuboriladi. Bir vaqtning o'zida soliq organi tomonidan soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilishi to'g'risida xabarnoma buning sabablarini ko'rsatgan holda yuboriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organi tomonidan mazkur soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

1) ushbu soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organiga moliyaviy va (yoki) soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o'n kun ichida taqdim etilmaganda;

2) soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha talabnomasiga tushuntirishlar va (yoki) tuzatishlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, shuningdek soliq to'lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar taqdim etilmaganda;

3) soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslarini ko'rsatilgan hududga yoki binoga (bundan turar joylar mustasno) kirishiga to'sqinlik qilishda. Soliq organi mansabdor shaxsining kirishiga to'sqinlik qilinishi uning o'zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi bankdagi hisob varaqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turadi;

4) soliq to'lovchining (soliq agentining) o'zi ko'rsatgan manzilda yo'qligida.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatib turilishi banklar tomonidan soliq to'lovchining (soliq agentining) barcha hisobvaraqlari bo'yicha barcha chiqim operatsiyalari to'xtatib turilishini anglatadi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati o'tgach o'n kun ichida taqdim etilmagan taqdirda, bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror mas'ul ishtirokchining yoki ushbu konsolidatsiyalashgan guruh barcha ishtirokchilarining operatsiyalariga nisbatan soliq organi rahbari (uning o'rinbosari) tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatib turilishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda ko'rsatilgan to'lovlarga, shuningdek qonun hujjatlariga

